

XI BO'LIM.
AKSIZ SOLIG'I

289-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'ltov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy belgilangan), shuningdek advalor va qat'iy belgilangan soliq stavkalarini o'z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

289¹-modda. Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari

Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	360 000 so'm/1000 dona + 10 foiz	2022-yil 1-yanvardan: 185 000 so'm/1000 dona + 10 foiz 2022-yil 1-iyundan: 203 500 so'm/1000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	5 200 so'm/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	310 000 so'm/kg*	
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	310 000 so'm/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimiladigan tamaki	310 000 so'm/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	310 000 so'm/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	125 000 so'm/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	550 so'm/ml	

* Belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq chilim uchun tamakisiz aralashmani olib kirishda ham to'lanadi.

** Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlikni (nikotinni) uni iste'mol qilish tizimlarida (elektron va boshqalar) olib kirishda soliq mazkur suyuqlik tarkibidagi nikotin miqdoridan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Ushbu modda **birinchi qismining** 1-bandida aksiz solig'ining qat'iy belgilangan stavkasi natura ifodalangan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo'llaniladi, aksiz solig'ining advalor soliq stavkasi ishlab chiqaruvchining aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan qo'llaniladi. Tovar importida advalor soliq stavkasi bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatiga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu modda **birinchi qismining** 3 — 6-bandlarida soliq stavkasi tamaki mahsulotidagi tamaki xomashyosi massasiga nisbatan tamaki xomashyosi massasi to'g'risidagi axborotni iste'mol qadog'ida (idishda) ko'rsatish sharti bilan qo'llaniladi. Agar chilim uchun tamaki bo'yicha tamaki xomashyosi massasi netto og'irligining 20 foizdan kamni tashkil etgan taqdirda, u holda aksiz solig'i netto og'irligining 20 foizidan hisoblab chiqariladi. Iste'mol qadog'ida (idishida) tamaki xomashyosining og'irligi to'g'risida axborot mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq stavkasi netto og'irligiga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu modda **birinchi qismining** 7-bandida soliq stavkasi tovarning netto og'irligiga nisbatan qo'llaniladi, bunda iste'mol qadog'ining (plastik bankaning, karton qutisining va shu kabilarning) og'irligi hisobga olinmaydi. Iste'mol qadog'ida (idishida) tovarning og'irligi to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq stavkasi iste'mol qadog'ini (idishini) hisobga olgan holda netto og'irligiga nisbatan qo'llaniladi.

289²-modda. Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari

Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari		
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan (1 dal tayyor mahsulot uchun)	
			2022-yil 1-yanvardan	2022-yil 1-iyundan
1.	Oziq-ovqat xomashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi	70%	13 500 so'm	14 900 so'm
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	45 000 so'm/1 litr uchun	125 100 so'm	138 000 so'm
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	63 000 so'm/1 litr uchun	206 700 so'm	228 000 so'm
3.	Vino:			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	31 500 so'm/1 litr uchun	1 so'm	
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	45 000 so'm/1 litr uchun	18 000 so'm	19 800 so'm
4.	Pivo	50%, biroq 1 litr uchun/13 500 so'mdan kam bo'lmagan	12 600 so'm	13 800 so'm

289³-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi	
		2022-yil 1-yanvardan	2022-yil 1-iyundan
1.	Neft mahsulotlari:		
	Ai-80	240 000 so'm/tonna	275 000 so'm/tonna
	Ai-90 va undan yuqori	275 000 so'm/tonna	275 000 so'm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	200 000 so'm/tonna	220 000 so'm/tonna
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	240 000 so'm/tonna	264 000 so'm/tonna
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	216 000 so'm/tonna	237 600 so'm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	340 000 so'm/tonna	374 000 so'm/tonna
2.	Polietilen granulalar	10%	
3.	Tabiiy gaz, bundan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan gaz mustasno	20%	
4.	Yakuniy iste'molchiga sotiladigan:		

	benzin	1 litr uchun 350 so‘m/1 tonna uchun 465 530 so‘m	1 litr uchun 385 so‘m/1 tonna uchun 512 000 so‘m
	dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 350 so‘m/1 tonna uchun 425 918 so‘m	1 litr uchun 385 so‘m/1 tonna uchun 468 000 so‘m
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 350 so‘m/1 tonna uchun 665 493 so‘m	1 litr uchun 385 so‘m/1 tonna uchun 730 000 so‘m
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 500 so‘m	1 kub metr uchun 550 so‘m
5.	Mobil aloqa xizmatlari	10%	
6.	Xushbo‘yashtiruvchi yoki rang beruvchi qo‘shimchalarsiz oq shakar	20%	

Ushbu modda **birinchi qismining** 3 va 5-bandlarida soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan (ko‘rsatiladigan) aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) belgilangan, va mazkur tovarlarni olib kirishda qo‘llanilmaydi.

Ushbu modda **birinchi qismining** 4-bandida nazarda tutilgan olib kirilgan (import qilingan) aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun ishlatilganda, soliq to‘lovchilari bo‘lib ushbu tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun olib kirishni amalga oshirgan shaxslar e’tirof etiladi.

Ushbu modda **birinchi qismining** 6-bandida belgilangan soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan xushbo‘yashtiruvchi yoki rang beruvchi qo‘shimchalarsiz oq shakarga qo‘llaniladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi hududiga shakar xomashyosini olib kirishga aksiz solig‘i solinmaydi.

РАЗДЕЛ XI. АКЦИЗНЫЙ НАЛОГ

Статья 289. Налоговые ставки

Налоговые ставки устанавливаются в процентах к стоимости товара или услуги (адвалорные), в абсолютной сумме на единицу измерения в натуральном выражении (фиксированные), а также комбинированные, состоящие из адвалорной и фиксированной налоговых ставок.

Статья 289¹. Налоговые ставки на табачную продукцию

Налоговые ставки на табачную продукцию устанавливаются в следующих размерах:

№	Виды табачной продукции	Налоговые ставки	
		при импорте	на производимые
1.	Сигареты с фильтром, без фильтра, папиросы, сигариллы (сигариты), биди, кретек	360 000 сум/1 000 штук + 10 процентов	с 1 января 2022 года: 185 000 сум/1 000 штук + 10 процентов с 1 июня 2022 года: 203 500 сум/1 000 штук + 10 процентов
2.	Сигара	5 200 сум/1 штуку	
3.	Табак для кальяна	310 000 сум/кг*	
4.	Табак курительный, трубочный	310 000 сум/кг	
5.	Табак жевательный, нюхательный и сосательный	310 000 сум/кг	
6.	Нагреваемая табачная палочка, нагреваемая капсула с табаком и другие изделия, содержащие табак, с аналогичным принципом использования	310 000 сум/кг	
7.	Никотиновый бестабачный снюс	125 000 сум/кг	
8.	Никотиносодержащая жидкость (в картриджах, резервуарах и других контейнерах для использования в электронных сигаретах)**	550 сум/мл	

* Налог по установленной налоговой ставке уплачивается также при ввозе бестабачной смеси для кальяна.

** При ввозе никотиносодержащей жидкости (никотина) в системах ее потребления (электронные и другие) налог уплачивается исходя из содержания никотина в составе данной жидкости.

В пункте 1 **части первой** настоящей статьи фиксированная налоговая ставка применяется к объему подакцизных товаров в натуральном выражении, адвалорная налоговая ставка применяется к стоимости реализованных товаров производителя, не включающая акцизный налог и налог на добавленную стоимость. При импорте товара адвалорная налоговая ставка применяется к таможенной стоимости, определяемой в соответствии с таможенным законодательством.

В пунктах 3 — 6 **части первой** настоящей статьи налоговая ставка применяется в отношении массы табачного сырья в табачной продукции при условии указания на потребительской упаковке (таре) информации о массе табачного сырья. В случае, если масса табачного сырья по табаку для кальяна составляет менее 20 процентов веса нетто, то налог исчисляется от 20 процентов веса нетто. В случае отсутствия на потребительской упаковке (таре) информации о массе табачного сырья налоговая ставка применяется к весу нетто.

В пункте 7 **части первой** настоящей статьи налоговая ставка применяется в отношении веса нетто товара, при этом не учитывается вес потребительской упаковки (пластиковой банки, картонной упаковки и т.п.). В случае отсутствия на потребительской упаковке (таре)

информации о весе нетто товара налоговая ставка применяется к весу нетто с учетом потребительской упаковки (тары).

Статья 289². Налоговые ставки на алкогольную продукцию

Налоговые ставки на алкогольную продукцию устанавливаются в следующих размерах:

№	Виды алкогольной продукции	Налоговые ставки		
		при импорте	на производимые (за 1 дал готовой продукции)	
			с 1 января 2022 года	с 1 июня 2022 года
1.	Спирт этиловый ректификованный из пищевого сырья, спирт этиловый ректификованный технический из эфиромальдегидной фракции и фракция головная этилового спирта	70%	13 500 сум	14 900 сум
2.	Водка, коньяк и прочая алкогольная продукция	45 000 сум/литр	125 100 сум	138 000 сум
	водка, коньяк и прочая алкогольная продукция с объемной долей спирта свыше 40 процентов	63 000 сум/литр	206 700 сум	228 000 сум
3.	Вино:			
	натуральные вина естественного брожения (без добавления этилового спирта)	31 500 сум/литр	1 сум	
	прочие вина, в том числе вермут	45 000 сум/литр	18 000 сум	19 800 сум
4.	Пиво	50 %, но не менее 13 500 сум/литр	12 600 сум	13 800 сум

Статья 289³. Налоговые ставки на нефтепродукты и другие подакцизные товары и услуги

Налоговые ставки на нефтепродукты и другие подакцизные товары и услуги устанавливаются в следующих размерах:

№	Наименование товаров (услуг)	Налоговая ставка	
		с 1 января 2022 года	с 1 июня 2022 года
1.	Нефтепродукты:		
	Аи-80	240 000 сум/тонну	275 000 сум/тонну
	Аи-90 и выше	275 000 сум/тонну	275 000 сум/тонну
	авиакеросин (за исключением синтетического)	200 000 сум/тонну	220 000 сум/тонну
	дизельное топливо (за исключением синтетического)	240 000 сум/тонну	264 000 сум/тонну
	дизельное топливо ЭКО (за исключением синтетического)	216 000 сум/тонну	237 600 сум/тонну

	моторное масло для дизельных или карбюраторных (инжекторных) двигателей	340 000 сум/тонну	374 000 сум/тонну
2.	Полиэтиленовые гранулы	10%	
3.	Природный газ, за исключением ввезенного в Республику Узбекистан	20%	
4.	Реализуемый конечному потребителю:		
	бензин	350 сум за 1 литр/465 530 сум за 1 тонну	385 сум за 1 литр/512 000 сум за 1 тонну
	дизельное топливо	350 сум за 1 литр/425 918 сум за 1 тонну	385 сум за 1 литр/468 000 сум за 1 тонну
	сжиженный газ	350 сум за 1 литр/665 493 сума за 1 тонну	385 сум за 1 литр/730 000 сум за 1 тонну
	сжатый газ	500 сум за 1 куб.м	550 сум за 1 куб.м
5.	Услуги мобильной связи	10%	
6.	Сахар белый без вкусо-ароматических или красящих добавок	20%	

В пунктах 3 и 5 **части первой** настоящей статьи налоговые ставки установлены на подакцизные товары (услуги), производимые (оказываемые) в Республике Узбекистан, и не применяются при ввозе данных товаров.

При использовании ввезенных (импортированных) подакцизных товаров, предусмотренных пунктом 4 **части первой** настоящей статьи, для собственных нужд налогоплательщиками налога являются лица, осуществившие ввоз этих товаров для собственных нужд.

Налоговая ставка, установленная в пункте 6 **части первой** настоящей статьи, применяется при ввозе сахара белого без вкусо-ароматических или красящих добавок на территорию Республики Узбекистан. При этом ввоз сахара-сырца на территорию Республики Узбекистан не облагается акцизным налогом.